

O'zbekistonda Demografik O'Zgarishlarni Ijtimoiy-Iqtisodiy O'sishga Tasiri

Abdumalikova Gulirano Farruh qizi¹

Anatatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda demografik o'zgarishlarni Ijtimoiy iqtisodiy o'sishga tasiri, O'zbekiston demografiyasi, Iqtisodiy o'sish – yangi ish o'rinlarini yaratish uchun asosiy omil, O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: demografik ozgarishlar, ijtimoiy iqtisodiy, o'sish, o'zgarish, islohot.

"Iqtisodiy o'sish sur'ati" deganda ma'lum bir davrda YaIMning birinchi va oxirgi yillari o'rtasidagi geometrik yillik o'sish sur'ati tushuniladi. Ushbu o'sish sur'ati ushbu davrdagi YaIMning o'rtacha darajadagi tendentsiyasini aks ettiradi va ushbu tendentsiya atrofida YaIMdagi har qanday tebranishlarni hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sish hosildorlikning mehnatning jismoniy kapitalning energiya yoki ning materiallar) kabi intensiv o'sish. Aksincha, faqat foydalanishga yaroqli bo'lgan mablag'lar miqdorining ko'payishi (masalan, aholi sonining ko'payishi yoki yangi hudud) natijasida YaIMning o'sishi quyidagicha hisoblanadi. Yangi tovar va xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ham keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy o'sish – yangi ish o'rinlarini yaratish uchun asosiy omil

Yaxshi naf beradigan ish o'rinlari yaratilishi iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasini oshirishning muhim shartidir. Mehnat unumdorligi va bandlikning ortishi aholi jon boshiga YaIM singari muhim ko'rsatkichning o'sishiga xizmat qiluvchi ikkita asosiy omildir. Aholi jon boshiga daromadlari eng yuqori bo'lgan mamlakatlarda so'nggi ikki asr davomida mehnat unumdorligi keskin o'sib borayotganini ko'rish mumkin. Mehnat unumdorligining bunday o'sishi "samaraliroq" yoki yuqori maoshli ish o'rinlari yaratilishiga olib keldi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM aslida butun aholi mehnati samaradorligi (unumdorligi) ko'rsatkichidir. Yuqori va past daromad darajasiga ega mamlakatlarda aholi jon boshiga YaIMdagi farqlar mamlakatlar o'rtasidagi mehnat unumdorligi darajalaridagi farqlarni ifodalaydi.

O'zbekiston aholisining ijtimoiy -iqtisodiy va demografik rivojlanishi XIX-asrning 2-yarmidan boshlab podsho Rossiyasi bosib olgandan so'ng keskin o'zgardi. Bu holat aholi soni, milliy va yosh-jinsiy tarkibi, ko'payish sur'atlari, joylashish xususiyatlarida o'z aksini topdi. Rossiyadan dehqonlar ko'chirilib, Mirzacho'lga joylashtiril di, Sharqiy Turkistondan uyg'urlar ko'chirilib keltirilib, respublika sharqidagi tog' vodiylarida ular uchun joy ajratildi. 1897-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatiga muvofiq O'zbekiston hududida 3,9 mln. kishi yashagan, shundan 19 % shahar aholisi edi. Tub aholining migratsion harakatchanligi past bo'lgan. Aholining ko'chib keluvchilar hisobiga o'sishi podsho hukumati mustamlakachilik siyosatining natijasi edi. Shu siyosat tufayli o'lkada yangi-yangi qishloq va shaharchalar barpo etildi. Biroq shunga qaramay 1865-1900-yillarda aholi 0,6 % ga ko'paydi. XX-asrning 1-choragida ham aholi o'sishida sezilarli o'zgarish bo'lmadi. 1924-40-yillar davomida O'zbekiston aholisi 2,3 mln. kishiga oshdi, aholining o'sishi-yiliga 3 % ga teng bo'ldi.


Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston aholisi ning soniga, uning tarkibi va joylashuviga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urush natijasida respublika 1 mln.dan ortiq aholisini yo'qotdi. Aholining umumiy soni 1940-45-yillarda 6,6 mln. kishidan 5,2 mln. kishigacha kamaydi. Urushdan keyingi davrda aholi o'sish sur'atlarida ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Aholining soni 5,2 mln.dan 8,4 mln.gacha ko'paydi. Bunda ham sof tabiiy ko'payishdan ko'ra chetdan ko'chirib keltiril gan aholining salmog'i katta bo'ldi. XX-asrning 60-80-yillarida respublika aholisi tarkibida o'zbeklarning soni muntazam ravishda yuqori sur'atlar bilan ko'payib bordi. 1989-yilda o'zbeklar salmog'i respublika aholisining tarkibida 71,4 % ni tashkil etgan.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishi uning demografik tarixida mazmunan yangicha bosqichga o'tishni taqozo etdi. Respublikada bozor munosabatlarining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sharoitlarning o'zgarishi natijasida yangi demografik jarayon boshlandi: tug'ilish keskin kamaydi, mamlakatdagi slavyan xalqlar, yahudiy, mesxeti turk, grek, ukrain, nemis va b. xalqlarning ma'lum qismi o'z tarixiy yurtlari va b. xorijiy davlatlarga ko'chib ketdi. Eng katta manfiy migratsiya saldosi 1990-yilda kuzatilib, 181,2 ming kishini tashkil etdi. Mazkur demografik jarayonlar O'zbekiston aholisining o'sish sur'atlarini qisqarishiga olib keldi. Keyingi 15-yil davomida respublika aholisi 4,8 mln.ga ko'paydi, o'sish sur'ati 1,8 %ni, o'rtacha-yillik mutlaq ko'payish soni 400 ming kishini tashkil qildi.

O'zbekiston tizimli islohotlarini boshqa mamlakatlardan ko'ra kechroq boshlagan bo'lsa-da, o'tish davri iqtisodiyotiga ega boshqa mamlakatlar tajribasidan muhim saboqlarni olishi mumkin, deb hisoblaydi Jahon banki mutaxassislari. Rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam beruvchi yirik xalqaro moliya tashkiloti yaqinda O'zbekiston iqtisodiyotiga bag'ishlangan yangi hisobotini taqdim etdi. Unda o'tgan 2018 yil va joriy 2019 yilning birinchi yarmida mamlakatda yuz

¹ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Stajor doktorant

bergan makroiqtisodiy, ijtimoiy va tarkibiy o'zgarishlar hamda yaqin 2 yil – 2021 yilgacha bo'lgan istiqbollar keng yoritilgan. Quyidagi diagramma orqali 2000-2021 yillarda O'zbekiston aholisining o'sishi erkak va ayollarni ajratilgan holda ko'rsatilgan.




Ushbu diagramma orqali demografik o'sish yildan yilga oshib borayapti, erkak va ayollar o'rtasidagi ozgina farq yillar mobaynida tenglashmagan.

O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari sekin, ammo ijobiy bo'lib qolmoqda. Islohotlar ishlab chiqarishdagi cheklovchi omillarni (to'siqlarni) bartaraf etish va yuqori o'sish potensialiga ega tarmoqlarni liberallashtirishga yordam beradi. Meva-sabzavotchilik, turizm, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik va kimyo sanoati shunday tarmoqlar qatoriga kiradi. Biznesda soliq yukining sezilarli darajada kamaytirilishi zikr etilgan jarayonlarni yanada qo'llab-quvvatlaydi. 2019–2020 yillarda narx-navoning liberallashuvi va oylik ish haqi oshirilishi sababli inflatsiya yuqori darajada saqlanib qoladi. Biroq 2021 yilga borib u pasayishi, Jahon banki prognozlariga ko'ra, tashqi savdo balansining salbiy saldosi yuqoriligicha qoladi. Sababi, O'zbekiston iqtisodiyoti kelgusi bir necha yilda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun ko'plab mashina va uskunalarni import qilishni davom ettiradi.

O'zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat bo'lib, ular




Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq:



Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va ziddiyatli jarayon hisoblanib, u asosan iqtisodiy o'sishda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutloq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 miqdori qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari mavjud.



Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: taklif omillari va taqsimlash omillari.



Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o'z mazmuniga ko'ra birbirlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy muvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Iqtisodiy rivojlanish – ko'p qirrali jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o'sish – YAIM, SMM, MD miqdorining mutloq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sish mezoni – iqtisodiy o'sishni nisbatan to'liq darajada baholash imkonini beradigan ko'rsatkichni xarakterlaydi.

Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari – iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko'rsatkichlar tizimidan iborat.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

Intensiv iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.

Iqtisodiy o'sish omillari – iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishda o'z o'rniga ega bo'lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

Milliy boylik – insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat in'omlari.

Moddiy-buyumlashgan boylik – milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy – buyum ko'rinishga ega bo'lgan qismi.

Tabiiy boylik – milliy boylikning tabiatda mavjud bo'lib, insoniyat tomonidan foydalanishga jalb qilingan tabiat ashyolari va kuchlari (er, qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va boshqalar).

Ma'naviy boylik – ashyoviy-buyum ko'rinishiga ega bo'lmagan nomoddiy qimmatliklardan va insoniyatning intellektual salohiyati natijalaridan iborat.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 15-b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 25-b.
3. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi materiallari.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 39-b.
5. www.UzAnalytics.uz
6. www.Worldbank.com